

O.YOQUBOVNING “YAXSHILIK” HIKOYASIDA QO`LLANGAN FRAZELOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING LISONIY TAHLILI.

Fozilova Gulshoda

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar institute I bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14840358>

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk ijodkor Odil Yoqubov hikoyalari qo`llanilgan frazeologik birliklarning qo`llanish uslubi va ularning hikoyadagi vazifalari korib chiqilgan. Jumladan, hozirgi o`zbek adabiyoti hikoyalari va bugungi kun tilshunosligida iboralarning qo`llanishi atroflicha tahlil qilindi.

Kalit so`zlar: lingvistik, frazeologik birlik, ifoda plani, mazmun plani, tasnif, frazema, ibora.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ В РАССКАЗЕ О.ЯКУБОВА «ДОБРОТА» И ИХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.

Аннотация. В данной статье рассмотрен способ употребления фразеологизмов, использованных в рассказах великого творца Одила Якубова, и их функции в рассказе: Проанализировано употребление выражений в современной узбекской литературе, рассказах и лингвистике.

Ключевые слова: лингвистика, фразеологизм, план выражения, план содержания, классификация, фразема, фраза.

PHRASEOLOGICAL UNITS USED IN O.YAKUBOV'S STORY "KINDNESS" AND THEIR LINGUISTIC ANALYSIS.

Abstract. This article examines the way of using phraseological units used in the stories of the great creator Odil Yakubov, and their functions in the story: The use of expressions in modern Uzbek literature, stories and linguistics is analyzed.

Key words: linguistics, phraseology, expression plan, classification, idioms, phrase.

Kirish. Frazeologiya (gr. “phrasis” – ifoda va “logos” – ta`limot) degan ma`noni bildiradi. Frazeologiya bo`limida iboralar (turg`un birikmalar, frazeologik birikmalar, frazeologizmlar) o`rganiladi. Shu sababdan frazeologiya ikki ma`noda ishlatiladi:

1. Tilning frazeologik tarkibini o`rganuvchi tilshunoslik sohasi,
2. Shu tilning frazeologizmlar majmui.

Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Aytish mumkinki, ushbu yo'nalish tilshunoslikning tez rivojlangan sohalaridan biri hisoblanadi. Rus va ingliz tilshunosligida frazeologiya ancha ilgari o'rganila boshlangan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida bu soha o'tgan asrning 40-50-yillaridan sistemali ravishda o'rganila boshlangan. Bu davrda juda ko'p tilshunos olimlar frazeologizmlar tadqiqiga bag'ishlab doktorlik dissertatsiyalarini yaratgan. Bularga misol tariqasida Sh.Rahmatullaev (1969), G.A.Bayramov (1970), M.F.Chernov (1986) kabilarni aytishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Mustaqillik yillaridan keyin ham bu sohada juda ko'p ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Sh.Rahmatullaevning 1992-yilda nashr etilgan "O'zbek tilida fe'l frazemalarining bog'lashuvi" nomli monografiyasi ushbu sohada yaratilgan dastlabki tadqiqot natijalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari frazeologizmlar mavzusidagi yana bir ilmiy ish Sh.A.Ganiyeva tomonidan 2017-yilda himoya qilingan bo'lib, u "O'zbek frazeologizmlarining strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish)" deb nomlanadi.

Bu ilmiy ish frazeologizmlarning shakl va mazmun jihatidan alohida tartib bo'yicha o'rganilganligi bilan ahamiyatlidir. [4, 45].

Frazeologik birliklarning xususiyatlarini tashqi shaklga qarab ham tasnif qilish mumkin.

Bu tasnifda ko'proq frazeologik iboralarning tarkibidagi so'zlar soniga e'tibor beriladi.

Ko'pgina tilshunoslar iboralar faqat ikki so'zdan iborat bo'lgan barqaror birikma, degan fikrlarni bildiradilar. Ammo kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch va undan ortiq so'zlardan iborat bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, iboralarning quyidagi xususiyatlari ham mavjud:

1. Iboralar nutqqa tayyor holda olib kiriladi, iboralar tarkibidagi so'zlar orasida sintaktik aloqa bo'lmaydi. Iboralar yaxlitligicha bir so'roqqa javob bo'ladi va butunligicha bir gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Quyidagi gapda "damim ichimga tushib ketdi" iborasi butunligicha kesim vazifasida kelgan: "Buvimning zardali ovozi eshitib, *damim ichimga tushib ketdi.*"

2. Iboralar mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lib, ko'pincha mazmunan bir leksema hisoblanadi. Buni quyidagi ibora misolida ko'rishimiz mumkin: "ko'zini bo'yamoq" – aldamoq.

3. Frazeologizmlar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda qo'llaniladi hamda tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nosi muayyan nutq jarayonida oydinlashadi. Masalan: "og'ziga talqon solmoq" iborasi tarixiy qo'llanish me'yoriga ega bo'lib, *jim turmoq, sukut saqlamoq* ma'nolarini anglatib keladi.

4. Frazelogizmlar tilda ekspressivlik, emotsionallik, obrazlilikni oshirish uchun xizmat qiladi. Frazelogizmlar odatda insonning lisoniy ongidagi fikrni chiroyli dalillar bilan yoritadi va xoh u tinglovchi bo'lsin, xoh u kitobxon bo'lsin lisoniy tafakkuriga oddiy jumalardan ko'ra tez muhrlanadi. Masalan, hikoyada "ruhi so'ngan" iborasi emotsionallikni oshirish uchun xizmat qilgan bo'lib, "*ruhiy tushkunlikka tushgan*" degan ma'noni anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Frazelogizmlar odatda tilning ko'z ilg'amas jihatlarini, rang-barangligini o'zida aks ettiradi.

Uning bu kabi xususiyatlarini o'zbek olimlaridan Sh.Rahmatullaev, A.Isaev, K.Bozorboev, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev, U.Rashidova, Sh.G'anieva, Sh.Almamatova, B.Boltayeva kabilar tadqiqotlar olib borishgan va sohaning tadqiq ko'lamini yoritib berishga muayyan darajada muvaffaq bo'lishgan.

Bundan tashqari rus tilshunos olimlari ham bu sohada ko'p izlanishlar olib borishgan. Frazelogiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi — Frazelogiya o'rganish masalasi 20—40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda — Ye.D. Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. V.Jukov frazeologizmlarning kategoriya va ma'nolarini aniqlagan. V.Vinogradov esa iboralarni leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariga ko'ra tasniflaydi. Ingliz tilshunosi Smirnitkiy esa frazeologiyaning alohida tilshunoslik sohasi ekanligi tarafdori bo'lgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Frazelogik birliklarni tadqiq qilishda har bir frazemaning ifoda va mazmun planlariga e'tibor qaratish joiz. Chunonchi, frazemaning ifoda plani deganda uning leksik tarkibi, birikma yoki gapga tenglik konstruksiyasi nazarda tutiladi.

Masalan: *ichidan pishgan – birikmaga teng, atrofida girgittan bo'lmoq – gapga teng.*

Frazemaning mazmun plani esa uning nimanidir nomlashi, ifodalanishi va mazmunan anglatishidir.

Quyida Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasi misolida frazeologizmlarning mazmun plani va ifoda plani jihatidan lisoniy tahlilini o'rganib chiqamiz. XX asr o'zbek adabiyotida Odil Yoqubov o'z nasriy asarlarida puxta fikr va g'oyalarni syujetga o'ragan holda kitobxonga yetkazish mahorati bilan ajralib turadi. Odil Yoqubov hikoya qahramonlarining ichki his-tuyg'u, kechinmalarini ifodalashda frazeologizmlardan oqilona foydalangan.

Hikoyada urush davrida o'zbek xalqining front va front ortida boshidan kechirgan qiyinchiliklari, insonlarning his-tuyg'ulari va mashaqqatli hayotlari bayon etilgan.

Hikoyada bir qator iboralar keltirilgan bo'lib, ularni birma-bir tahlil qilish frazeologizm haqidagi nazariyalarni asoslash imkonini beradi. Hikoyada "yon bosmoq" iborasi mavjud bo'lib, ifoda plani jihatdan birikmaga teng. Mazmun plani jihatidan tarafini olmoq, homiylik qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Hikoyada quyidagicha ma'no ifodalangan: "Tog'angiz ketganida meni birov xafa qilsa yon bosasizmi menga?" [3, 77].

Endi keyingi iboraga e'tiborimizni qaratamiz: "*Boshi osmonga yetmoq*" ifoda plani jihatidan gapga teng bo'lib, mazmun jihatidan g'oyat xursand bo'lmoq ma'nosini anglatadi. Hikoyada quyidagi mazmuni anglatadi: "Kelinoyimning yashnab ketgan chehrasini, sevinchdan chaqnagan tim qora ko'zlarini ko'rganimda boshim osmonga yetdi" [3, 79].

"Ko'ngli cho'kib qolgan" bu ibora ifoda plani jihatdan gapga teng bo'lib, mazmun jihatidan juda xafa, umidsizlikka tushgan ma'nosini ifodalab kelmoqda. Hikoyada quyidagicha keltirilgan: "Hamqishloq yigitning xatlariga qaramay, gospitaldan dom-darak bo'lmagach, ko'ngli cho'kib qoldi" [3,80]. Yozuvchining oddiy "xafa bo'ldi" so'zini qo'llashdan chekinib, iborani keltirishi uning badiiy mahoratini ko'rsatib turibdi.

Quyidagi iboralarda ham ushbu xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin: "atrofida girgитton bo'lmoq" iborasi ifoda plani jihatidan gapga teng bo'lib, mazmun jihatidan odam atrofida mehribonlik bilan parvona bo'lmoq ma'nosini anglatib kelgan: "U xuddi olis va notanish joyga tushib qolgan kiyik bolasiga o'xshar, atrofida girgитton bo'lgan qarindosh-urug'lar bilan, hatto buvim bilan ham ko'p yozilib gaplashavermas, aksariyat bog'ni yolg'iz kezar, ko'zlarini olis-olislariga tikib, uzoq o'yga cho'mar edi" [3, 78]. Mazkur gapda Odil Yoqubovning ta'sirchanlikni oshirish, mazmuni chiroyli tasvirlash mahoratini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Matndagi "o'yga cho'mdi" iborasi ifoda plani jihatdan birikmaga teng bo'lib, mazmunan chuqur fikrlash holatini anglatib kelgan. Shuni ta'kidlash joizki, hikoyada juda ko'p holatda bir gap tarkibida ikki va undan ortiq iboralar keltirilganini kuzatishimiz mumkin. Bu ham yozuvchining badiiy mahoratini belgilab beradi. Hikoyada yana bir ibora juda chiroyli keltirilgan:

"Mehribon buvim bilan kelinoyimning ko'z yoshlarini aritgin, boshlariga tushgan g'am-g'ussadan soqit qil ularni, e mehribon bobo!" [3, 81]. Bu parchada "boshiga g'am-g'ussa tushgan" iborasi ifoda plani jihatdan gapga teng bo'lib, mazmun plani jihatidan tashvishi bor insonga nisbatan qo'llanilgan. Mazkur iboralar o'zbek tili frazeologizmlarining izohli lug'atida keltirilgan bo'lib, ularning mazmun plani badiiy matn orqali ifodalanadi.

Tahlillar shundan dalolat beradiki, Odil Yoqubov hikoyalarida biror frazeologik birlikni qo'llar ekan, albatta, u orqali muayyan qahramonning ichki dunyosi, xarakterini aniqroq ochib berishga harakat qiladi. Iboralarni qo'llash orqali asarning o'quvchiga yanada aniqroq va ta'sirchan, mazmunli bo'lishini ta'minlaydi. Yozuvchi hikoyada frazeologizmlarni qo'llash orqali tilimizning naqadar boyligini yoritib bergan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Frazeologizmlar nafaqat tilimizni boyituvchi vosita, balki badiiy asarlarning o'qishlilikini, ta'sirchanlilikini oshirishga xizmat qiluvchi unsur ham hisoblanadi. Frazeologizmlar har bir tilning va o'sha til madaniyatining eng muhim va boy jabhasi hisoblanadi. Shuning uchun ma'lum bir tilning frazeologizmlarini o'rganar ekanmiz, bir xalqning madaniyatini, milliy an'analari va tarixini ham o'rganish imkoni tug'iladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, frazeologik birliklarni o'rganish tilshunoslik ravnaqiga hissa qo'shish bilan bir qatorda, til va madaniyat, til va xalq, til va adabiyot mushtarakligiga ham muayyan darajada ta'sir qiladi.

REFERENCES

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. 129-131- betlar.
2. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T: O'qituvchi, 1978. 5-bet
3. Karimov B, Abdiyev H. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi. – T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. 6-83-betlar
4. G'aniyeva Sh.A. O'zbek frazeologizmlarining strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish): Filol. fan nomzodi (PhD) diss. avtoreferat. – Toshkent, 2017. 50-bet.
5. В.Виногадов. Грамматика русского языка. 1952-1954 йй.
6. Ликов А.В. Фразеологическая преходность в русском языке. Л.: ЛГПИИ им. А.И.Герцена, 1984. –С. 25-31.
7. Раҳматуллаев Ш. Лексема ва фразема маъносини компонент таҳлилнинг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва аджабиёти. 1986. № 3. – Б. 19-20;
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. –Тошкент: “Университет”, 1992. – Б. 125
9. Vafoyeva M.Y. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. – Toshkent, 2009. 127-bet. Dis-378/2010.